

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O‘QITISH

Nazarov Bahodir Abdusamatovich

TATU Samarqand filiali “Kompyuter injiniringi” fakulteti dekan

Telefon: +998(97) 287 83 77

e-mail: nazarovbahodir82@gmail.com

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali qo‘llanmalar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish masalalari muhokoma qilingan.


Kalit so‘zlar: *Informatika va axborot texnologiyalari, Elektron pochta ishlashni boshlash, dasturiy vosita, elektron qo‘llanma, gipermatn, ovoz, grafika, video, test, multimedia, animasiya, imitasion model, umumiy o‘rta ta‘lim, dasturiy vosita.*

Kirish. Ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish albatta o‘z samarasini beradi. Ba‘zi fikr-qarashlar zamonaviy axborot texnologiyalar yoshlar ongiga ta‘siri borasida tanqidiy mulohaza yuritishi tabiiy hol sababi yoshlarning qiziquvchanligi internet va mobil aloqa vositalarga bog‘lanib qolishi bilan izohlanadi. Muammoni mobil texnologiya va internetni cheklab qo‘yish bilan yechib bo‘lmasligini barchamiz bilamiz, lekin baribir yoshlar tanqid ostida qolaveradi. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalarshda albatta internetdagi ma‘lumotlardan foydalanish madaniyatini (informatsion immunitet) o‘rgatish talab etiladi. Bu texnologiyalarga qiziqishni to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirish milliy ma‘lumotlar ba‘zasini ko‘paytirish bilan bog‘liq. Ayniqsa ta‘lim tizimida elektron qo‘llanmalar va virtual ta‘lim tizimlardagi milliy ma‘lumotlar ba‘zasining ko‘payishi yoshlarning ta‘lim olishlari uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumki darsning odatiy – ana‘naviy o‘tilishi o‘quvchilarning 25% ga yaqini o‘zlashtirishi mumkinligi pedagog olimlar tomonida isbotlangan. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bir vaqtning o‘zida ham ma‘ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko‘rish va uni ekranda chiqarishni aktiv boshqarish o‘zlashtirish sifatini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbollidir. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.


Tadqiqotda qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan tasavvur qilish ko‘nikmalari rivojlantirilgan. Dasturiy vositalar asosida yaratilgan elektron qo‘llanmada 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid mavzular animasion ko‘rinishda mazmunan yoritib hozirgi darsikdan farqli ravishda o‘quvchiga tushunarli va mustaqil uy sharoitida ham o‘rgana oladigan qilib berilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Dasturiy vosita muqovasining ko‘rinishi

Yuqorida berilgan rasmdagi muqova oynasida berilgan “Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash”, “Tasvirlar bilan ishlashni boshlash”, “Diagrammalar bilan ishlashni boshlash”, “Dasturlashni boshlash” va “Qidiruv tizimlarida ishlashni boshlash” tugmalaridan biriga murojaat qilganimizda shu tugmada yozilgan mavzular bo‘yicha tegishli ma’lumotlar oynasi ochiladi.

Muqovada berilgan tugmalardan 1-siga murojaatni amalga oshirganimizda dasturda buni ochilishini animatsion ravishda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasi

Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash oynasida ham bir nechta tugmalar o‘rnatilgan va bu tugmalar 2-rasmda qizil chiqizlar bilan chegaralab qo‘yilgan. Bundan tashqari oynaning pastki qismida orqaga va oldinga tugmalari ham o‘rnatilgan bo‘lib ularga murojaat qilinganda oynalar navbati bilan almashinib keladi. Bu tugmalardan yuqorida joylashgan Word dasturi belgisi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilganda Microsoft Word dasturi haqida qisqacha ma’lumotlar bayon etilgan oyna ochiladi (3-rasmga qarang).

So‘z yozish uchun shu so‘zga kerakli bo‘lgan harflar klaviaturadan topiladi va kerakli ketma-ketlikda bosiladi. Har bir harf so‘z yasash uchun ekranda yozilishni boshlaydi. Shuningdek, harflar belgilar deb ham ataladi. Gap yozish uchun birinchi so‘zni kiritganingizda yoki bitta so‘z kiritganingizda, so‘zning birinchi harfi bosh harfga o‘zgarganini ko‘rishingiz mumkin. Odatda Microsoft Word har bir gapning birinchi harfini bosh harfga avtomatik ravishda almashtiradigan qilib sozlangan bo‘ladi. Bosh harflarda yozish harfni bosh harf ko‘rinishiga o‘tkazish uchun Shift tugmasini bosib ushlab turing, keyin bosh harfda yozmoqchi bo‘lgan harfni kiriting. Harfni yozib bo‘lganingizdan keyin shift tugmasini qo‘yib yuborasiz.

MICROSOFT WORD DASTURI












Office paketi dasturlari orasida qo'llanilish bo'yicha eng birinchi o'rinda turuvchi dastur bu – MS Word matn protsessori. 1992-yildan beri uning 10 dan ortiq versiyalari yaratildi.

Masalan, Word 2007 versiyasidan boshlab foydalanuvchilarga oddiy hol bo'lib qolgan menyu satri o'rniga Ribbon (tasmasli panel) deb nomlangan ko'rinish taqdim etildi.



MS Word-MS Office amaliy dasturiy ta'minot oilasiga kiradi va aynan matn terish, uni rasmiylashtirish, matnga jadval, rasm va turli obyektlarni joylashtirib, uni bezashda ishlatiladi.

MS Word-matn muharririning imkoniyatlari:

- | | |
|--|---|
|  Matn terish; |  Katta hajmdagi matn ichida qidirish, almashtirish va o'rniga qo'yish; |
|  Matnga rasm qo'yish; |  Matnni qirib olish va o'rniga qo'yish; |
|  Matnga rang berish, shrift almashtirish; |  Matnni ko'chirish; |
|  Matn va jadval bilan ishlash; |  Matnni printer yordamida chop etish; |
|  Matnni har xil bichimlarda saqlash; |  Matnni orfografik xatolarga tekshirish... |
|  Hujjatni sahifalash; | |

3-rasm. Microsoft Word dasturi imkoniyatlari oynasi

Word matn muharriri Windows sistemasi muhitida ishlaydigan matn muharriri bo'lib, oddiy va murakkab strukturali matnli hujjatlarni tashkil qilish va chop etish uchun xizmat qiladi. Word matn muharriri yordamida har qanday hujjatni tez va bosmaxona talabiga javob beradigan darajada tayyorlash mumkin. Word matn muharriri matnlar ustida bajariladigan hamma operatsiyalarni keraklicha bajarish imkoniyatlariga ega bo'lib, zamonaviy kompyuter texnologiyasining hamma talabini o'z ichiga oladi.

Word matn muharriri ekranda "Microsoft office" da "W" belgisi bilan ko'rsatilgan bo'ladi. Uni ishga tushirish sichqoncha ko'rsatkichini "W" belgisiga keltirib, sichqonchani o'ng tugmachasini bosish bilan bajariladi. So'ng Word matn muharriri komp'yuter xotirasiga yuklanadi va oddiy strukturali matnlarni kiritish uchun "Документ 1" nomli yangi fayl hosil qiladi. Agar siz murakkab strukturali hujjat (masalan xat, faks orqali jo'natiladigan xat, hisobotlar va hakoza) tayyorlamoqchi bo'lsangiz u holda "Файл" menyusidan "Создать" menyu ostini ishlatasiz. U yerda bir necha murakkab strukturali hujjatlar shabloni berilgan. Siz ulardan o'zingizga kerak bo'lgan strukturali hujjat shablonini tanlab, o'zingizni hujjatingizni tez va yuqori darajada tayyorlaysiz. Tayyor bo'lgan hujjat "Файл" menyusining "Сохранить" yoki "Сохранить как" komandalaridan biri yordamida

saqlanadi. Word sizning hamma fayllarinigizga “.doc” nomli kengaytma nom qo‘shib saqlaydi. Ishni tamomlash uchun saqlab qo‘yilgan hujjat “Файл” menyusining “Закрыть” komandasi bilan yopiladi va “Выход” komandasi bosiladi.

Word matn muhariri oynasining umumiy ko‘rinishi quyida keltirilgan. Oynaning eng yuqori satri, sarlavha satri bo‘lib, unda matn muharrirning belgisi va nomi ko‘rsatiladi. Shu satrning eng o‘ng qismida uchta kichik tugmacha ko‘rsatilgan bo‘lib, ular mos ravishda oynani ekrandan olish, oyna kattaligini ekran kattaligiga tenglashtirish va oynani yopish vazifalarini bajaradi. Oynaning ikkinchi satri WORDning asosiy menyular satri bo‘lib, har bir menyu o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Oynaning keyingi ikki satrlarida instrumyentlar paneli joylashgan va ular bajaradigan funksiyasiga mos piktogrammali tugmachalarda berilgan. Ularning funksiyalarini bilib olish uchun sichqoncha ko‘rsatkichini piktogrammalar ustiga keltirish kifoya. Instrumyentlar panelidan keyingi satr lineyka deb ataladi va oynaning matn yoziladigan qismi satrlarini kengaytirish va qisqartirish uchun xizmat qiladi.

Xuddi shunday umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidagi qolgan bo‘limlar va mavzularining elementlari hamda tegishli masalalarini yechish jarayoni va bajaradigan vazifalari birma-bir multimediali elektron qo‘llanmada animatsion ishlanmalari yordamida yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining barcha mavzularini o‘rgatishda multimediali elektron qo‘llanmadan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularga mustaqil ishlash imkoniyatlarini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta‘lim tizimi samaradorligini oshirish //Ta‘lim va tarbiya. –Toshkent: -2003-y. -№3-4. B. 55 - 57.
2. Lutfillayev M.H., Fayziyev M.A. Multimediali elektron darsliklarda o‘qitish metodikasi // Uzluksiz ta‘lim. –Toshkent, 2002-y. -№4. -B. 79-81.
3. Lutfillayev M.H. Elektron darsliklardan o‘quv jarayonida foydalanish // Xalq ta‘limi jurnali. -Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 92-93.
4. Lutfillayev M.H. Multimediali elektron darsliklar yaratish talablari // Boshlang‘ich ta‘lim. –Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 20-21.
5. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF

MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.

6. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.

7. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.

8. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.

9. Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>

10. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>

11. Fayziyev N. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 172-175.

12. Asfandiyorovich F. N., O'g'li T. Z. J. ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 359-363.

13. Asfandiyorovich F. N. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 198-200.

14. Asfandiyorovich F. N. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH //ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. – 2022.